

# Bakalavriatura yo'nalishlari

## Bakalaviatura:

Nº	Shifr	Nomi	Izoh
1	60812300	Suv xo'jaligi va melioratsiya	<p>"Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lim yo'nalishi resurs tejamkor texnologiyalar va ekologik tabalabarni e'tiborga olgan holda takomillashgan meliorativ tizimlarni loyihalashning nazariy asoslari va usullari bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va kasbliy malakalarini shakllantiradi, o'quv, ijtimoiy va shaxsiy kompetentsiyalarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi.</p> <p>O'quv jarayoni quyidagilarga yo'naltirilgan: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yerlar melioratsiyasining roli, ehtiyojlarini va resurslarini baholash; turli tabiiy-xo'jalik sharoitlarda melioratsiyaning qilgona turlari, uslublari va usullarini asoslash; zamonaviy meliorativ tizimlarni loyihalash va muhandislik hisoblashlar bo'yicha nazariy asoslarni va amaliy ko'nikmalarni egallash; yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda iqtisodiy samarador va ekologik xavfsiz loyiha yechimlarini tatbiq qilish.</p> <p>Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi irrigatsiya va melioratsiya ta'lim sohasi tarkibida bo`lib, unda litosferaning yuqori qismiga joylashgan yer osti suvlari zaxiralari va resurslarini qidirib topish, ishlash va uni muhofazalash, yer osti suvlardagi bo`ladigan sifat va miqdoriy o'zgarishlarini monitoringini olib borish, hamda bu o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni baholash va bashorat qilishga, gidromeliorativ tizimlar va suv tortib olish quduqlari zonasida kechadigan antropogen jarayonlarni taxil qilish, yer osti suvlarini ichimligi suvi sifatida qo'llash, Yer osti suvlarini yerlarning meliorativ holatiga ta'sirini o'rganish, uni yaxshilash va yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan.</p> <p>Ushbu ta'lim yo'nalishi - fan, texnika va ta'lim sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo`lib, u qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yangi, zamonaviy ilg'or suv tejamkor texnologiyalar (tomchilatib, yomg'irlatib, tuman hosil qilib, ko'chma egiluvchan quvurlardan foydalanish, egaqtalarga pylonka to'shab sug'orish, suv o'chash va taqsimlashni avtomatlashtirish, dispetcherlangan holda boshqarish usullari)ni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etish, mintaqamizda kuzatilayotgan suv tanqisligi sharoitida ichki suv zaxiralardan qilgona foydalanish, mavjud muammolarini hal etishda ilg'or innovations texnologiyalarning afzalliklari, ulardan foydalanilganda qishloq va suv xo'jaligida erishiladigan iqtisodiy samaradorlik, fermer xo'jaliklarda jahoning zamonaviy ilg'or suv tejamkor texnologiyalarni qo'llash usullarini o'rganadi. Ushbu talim yo'nalishini yanada rivojlantirish maqsadida yangi zamonaviy fanlar kiritildi yani «Resurs tejamkor sugorish texnologiyalari», «Gidromeliorativ tizimlarida injinerlik servis xizmati», «Gidromeliorativ tizimlaridan foydalanishni avtomatlashtirish», «Melioratsiya tizimlarida innovations texnologiyalardan foydalanish» mutaxasislik fanlari shakllantirildi.</p> <p>Suv xo'jaligi sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo`lib, asosan suv omborlari va quruqlikdagi boshqa suv manbalarida kompleks tadtiqqotlar olib borish uchun mo'ljallangan usullar va vositalarni, suv resurslarini muammolarini tahlil qilish, tabiiy va antropogen hodisalar keltirib chiqargan ularning miqdoriy va sifatini o'zgarishlarini baholash va bashorat qilishni quruqlik suvlaridan ekologik xavfsiz foydalanish, ularni qurib golishdan va iflosanishdan muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni, qurilish bo'yicha loyihalar va suvni asrash choralarini rejashtirish uchun gidrologik va suv xo'jaligi hisoblashlarini, rejimli gidrologik choralarini tashkil etish va olib borishni, amaliy gidrologik bashoratlarni amalga oshirish kabi samarali jarayonlarini ta'minlashga yo'naltirilgan metodlar va vositalar majmuuni qamrab oladi.</p> <p>Fan, texnika va ta'lim sohasidagi ta'lim yo'nalish bo`lib, u o'quv fanlari, vositalari, uslublari va pedagogik faoliyatning usullarini hamda tarkibiga sug'oriladigan yerlardan yuqori hosil olish maqsadida, yet va suv resurslaridan mukammal foydalanish, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, mukammal suv xo'jaligi, gidromeliorativ tizimlarni va inshootlarni barpo qilish va ekspluatatsiya qilishga kasby ko'nikmaga yo'naltirilgan metodlar va vositalar majmuuni qamrab oladi. Kasby faoliyat ob'ektlari - ta'lim jarayonida mos kasb-hunar kollejlardagi o'quv-tarbiya jarayoni, suv resursları, xo'jalik va ichimlik extiyojlar uchun suv ta'minoti tizimlari, gidromeliorativ tizimlarni boshqarish ob'ektlari kiradi.</p> <p>Elektr energetika sohasidagi yangi materiallar olish tizimlari, elektr ta'minoti tarmoqlaridagi yangi materiallar, ichki irrigatsiya va melioratsiya tizimlari yangi materiallar suv ta'minoti tarmoqlarining energetik tizimlarini yangilashdagi materiallar, noan'anaviy energiya manbari va tizimlari, elektrotexnologik ukunalarni asosini tashkil etuvchi materiallar va materiallar texnologiyasini o'rganishga yo'naltirilgan</p> <p>Fan va texnika sohasidagi ta'lim yo'nalish bo`lib, fan va texnika sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo`lib, u suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni bajarish jarayonlarini mechanizatsiyalash, texnik vositalari va texnologiyalar, melioratsiya, qurilish mashinalarini va jihozlarini takomillashtirish, meliorativ mashinalardan ratsional foydalanish, servis xizmati ko'rsatishning tashkiliy masalalar yechimlarini zamonaviy innovations konsepsiyalari asosida ishlab chikish, suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni mechanizatsiyalashirish jarayonlarida injenerlik hisoblari, mashinalardan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish, suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni bajarishda foydalaniladigan melioratsiya va qurilish mashinalari va jihozlarini muhandislik hisoblari, suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni bajarishda foydalaniladigan melioratsiya va qurilish mashinalariga servis xizmat ko'rsatish, ishchi jihozlarining almashuvi, ta'mirlash strategiyasini belgilash bilan bog'lik kompleks masalalar majmuasini kamrab oladi.</p> <p>Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi hayotiy faoliyatda inson xavfsizligini ta'minlash, inson hayoti va faoliyat uchun qulay texnosferani (inson tomonidan shakllantirilgan muhit) shakllantirish, atrof muhitga texnogen ta'sirlarni minimallashtirish, zamonaviy texnik vositalardan, nazorat usullaridan va proqnozlardan oqilona foydalanish hisobiga inson hayoti va sog'lig'ini asrash, zamonaviy texnik vositalardan xavfsiz foydalanishni bilish masalalarini qamrab oladi.</p> <p>Ushbu ta'lim yo'nalishi orqali talabalar milliy iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlarida barqaror rivojanishga erishish uchun aerokosmik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'fadilar. Ushbu dastur aerokosmik texnologiyalar, global navigatsiya sun'iy yo'l'dosh tizimi (GNSS), masofadan zondlash (Erdas Imagine asosidagi amaliy mashg'ulotlar), IoT, mashinani o'rganish, chuchur o'rganish, sun'iy intellekt, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojanish kabi muhim fanlarni o'z ichiga olgan bo`lib, Barqaror rivojanish maqsadlari bilan bog'liq sohalarda global muammolarni hal qilish uchun eng yaxshi amaliyotlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.</p>
2	60812600	Meliorativ gidrogeologiya	
3	60813000	Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish	
4	60530800	Gidrologiya (daryo va suv omborlari gidrologiyasi)	
5	60112400	Professional ta'lim: Suv xo'jaligi va melioratsiya	
6	60720600	Materiallarshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi	
7	60812400	Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni mexanizatsiyalashirish	
8	61020200	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	
9	60713300	Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	